

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Temir Yusupov – DSc (Technology), Professor

Deputy Editor:

Djamila Isamatova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Branch of the Gubkin Russian State University of Oil and Gas

Editorial Board:

Farkhod Chorshanbiyev – DSc (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Firuz Rustambekova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Gulmira Irgasheva – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Javlon Jurayev – PhD (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Khusan Niyozov – PhD (Technology), Senior Lecturer
Tashkent Institute of Chemical Technology

Makhbuba Sharipova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Mokhigul Otamirzaeva – PhD (Geography)
University of Business and Science

Muyassar Navruzova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Oybek Ismailov – DSc (Technology), Professor, *Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*


Shukhrat Tukhtaev – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Umid Mukhitdinov – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Vasila Umarova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Yakubjon Yuldashev – PhD (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University


Sherzamin Abdurasulov – PhD (Technology), Senior Researcher
Tashkent State Transport University



A COMPARATIVE AND TYPOLOGICAL ANALYSIS OF THE SEMANTIC CATEGORIES OF ADVERBS IN THE UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Kholishxon Khusainova¹.

¹ Doctoral Student, Nukus State Pedagogical Institute.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20394048>

Key words: comparative-typological analysis, semantic categories of adverbs, Uzbek language, German language, locative adverbs, temporal adverbs, modal adverbs, functional-semantic equivalence.

ABSTRACT

This article investigates the semantic categories of adverbs in Uzbek and German from a comparative-typological perspective. The purpose of the study is to identify the classification criteria, semantic groups, and functional properties of adverbs in both languages, as well as to reveal their universal and distinctive features. The research employs comparative-typological, lexical-semantic, grammatical, and functional methods of analysis. The findings show that adverbs of place, time, manner, and cause form a common semantic core in Uzbek and German. However, in Uzbek, degree-quantity and purpose adverbs constitute separate semantic groups, whereas in German they are not distinguished as independent categories and are mainly expressed through modal adverbs, syntactic constructions, and prepositional phrases. The results of the study are practically significant for translation theory, comparative grammar, and teaching German to Uzbek-speaking learners.

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI RAVISHLARNING SEMANTIK KATEGORIYALARINI QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI

Kalit so‘zlar: qiyosiy-tipologik tahlil, ravishlarning semantik kategoriyalari, o‘zbek tili, nemis tili, Lokaladverbien, Temporaladverbien, Modaladverbien, funksional-semantik muvofiqlik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillaridagi ravishlarning semantik kategoriyalari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi har ikki tilda ravishlarning tasniflanish mezonlari, semantik guruhlar va funksional xususiyatlarini aniqlash hamda ular orasidagi universal va farqli jihatlarni ochib berishdan iborat. Ishda qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, grammatik va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va nemis tillarida o‘rin, payt, holat va sabab ravishlari umumiy semantik yadro sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq o‘zbek tilida daraja-miqdor va maqsad ravishlari alohida semantik guruhni tashkil etsa, nemis tilida ular mustaqil kategoriya sifatida ajratilmaydi va ko‘proq modal ravishlar, sintaktik konstruksiyalar hamda predlogli birikmalar orqali ifodalanadi. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, qiyosiy grammatika va nemis tilini o‘zbek auditoriyasiga o‘qitishda amaliy ahamiyatga ega.

Xorijiy tillarni o‘qitish va ularni qiyosiy jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tillarni qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish lisoniy tizimlarning ichki qonuniyatlarini aniqlash, tillararo interferensiya hodisalarini bartaraf etish hamda samarali o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot o‘zbek va nemis tillarida grammatik tabiati hamda funksional-semantik xususiyatlariga ko‘ra munozarali so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan ravishlarning semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Ravish morfologik jihatdan o‘zgarma so‘z turkumi sifatida tavsiflanadi va aynan shu belgisi bilan boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan farqlanadi. O‘zbek tilshunosligida ham, turkiy tillar doirasida ham, shuningdek, umumiy tilshunoslikda ham ravish nisbatan keyin shakllangan, tasnifiy jihatdan murakkab va muammoli so‘z turkumlaridan biri sifatida baholanadi.

Tilshunos olim T. Asadov o‘zining “So‘z turkumlari tizimida ravish” nomli monografiyasida ravishning ziddiyatli va muammoli so‘z turkumi ekanligini quyidagi asosiy omillar bilan izohlaydi:

1. Ravish, avvalo, mutlaqo mustaqil o‘zaklar asosida emas, balki boshqa so‘z turkumlari – ot, sifat, fe‘l va olmoshlar hisobidan uzluksiz boyib boruvchi dinamik leksik-grammatik tizimdir;

2. Ravishlar guruhining aksariyat qismi tilda yuz beradigan “soddalashish”, “tublashish” hamda “adverbializatsiyalashish” jarayonlari asosida shakllanadi;
3. O‘zbek tilshunosligida ravish masalasining muammoli tus olishi uzoq yillar davomida o‘zbek tili lisoniy hodisalariga rus tili grammatikasi qoliplari va andozalari asosida yondashilganligi bilan bog‘liqdir [1, B.12].

Akademik V.V. Vinogradov ravish so‘z turkumini belgilashda bir tomonlama yondashuv yetarli emasligini, aksincha, uni kompleks tarzda – semantik-leksik, morfologik va sintaktik jihatlarining o‘zaro aloqadorligi asosida tahlil qilish zarurligini asoslab bergan [8].

Nemis tilshunosligida ravish “Adverb” termini bilan yuritiladi, uning ko‘plik shakli “Adverbien” tarzida qo‘llanadi. Mazkur termin lotincha “adverbium” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab umumiy ma‘noda “Nebenwort” – “yon so‘z” yoki “Beiwort” – “qo‘shimcha so‘z” mazmunini anglatgan. Tor ma‘noda esa u “fe’lga bog‘langan so‘z” yoki “holatni ifodalovchi so‘z” – “Umstandswort” sifatida talqin qilinadi. Nemis leksikografiyasi va grammatik an‘analarida muhim o‘rin tutuvchi “Duden. Die Grammatik der deutschen Gegenwartssprache” asarida “Adverb” atamasiga ikki jihatdan yondashiladi:

- “Adverb” leksik kategoriya, ya‘ni mustaqil so‘z turkumini ifodalovchi birlik sifatida qaraladi;
- u sintaktik kategoriya, ya‘ni fe‘l bilan funksional jihatdan bog‘langan holat ma‘nosini bildiruvchi birlik – “Adverbial” tushunchasi bilan izohlanadi [7, B.355].

Ushbu tadqiqotda ravishning aynan birinchi ma‘nosi, ya‘ni leksik-semantik kategoriya sifatidagi xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortiladi. O‘zbek tilshunosligida ravish so‘z turkumini tizimli o‘rganish XX asrning 50-yillarida S. Fuzailov tomonidan boshlab berilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda T. Asadov tomonidan u morfologik va funksional-semantik jihatdan atroflicha tadqiq etilgan. Nemis tilshunosligida esa Jacob va Wilhelm Grimmlar ravishlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o‘rganganlar. Zamonaviy tadqiqotchilardan Theodor Ickler nemis tilida ravish va sifat shaklan ko‘p hollarda o‘zaro mos kelishini, masalan, “schnell” so‘zi kontekstga qarab “tez” yoki “tezkor” ma‘nolarini ifodalashini, ularni farqlash esa asosan gapdagi funksional vazifasi orqali amalga oshirilishini ta‘kidlaydi. Helbig va Buscha ushbu guruhni “Adjektivadverbien” – sifat-ravishlar deb nomlaydi hamda ularning darajalanish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi [3, B.337-338].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek va nemis tillaridagi ravishlarning semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish, ular o‘rtasidagi umumiyliklar hamda tipologik tafovutlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tipologik metod, tizimli-funksional tahlil hamda semantik komponentlar tahlili tashkil etadi. Tadqiqot materiali sifatida har ikki tilga oid o‘ndan ortiq fundamental grammatika manbalari, akademik darsliklar hamda ravish so‘z turkumi bo‘yicha olib borilgan monografik tadqiqotlar tanlab olindi. Tahlil jarayonida o‘zbek tilshunosligida S. Fuzailov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Mengliyev, T. Asadov kabi olimlarning tasniflari, nemis tilshunosligida esa “Duden Grammatik”, Prof. Dr. Peter Eisenberg, G. Helbig va J. Buscha kabi yetakchi germanistlarning nazariy qarashlari qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Har bir semantik guruhning lisoniy ifodalanish imkoniyatlari gap konteksti asosida tahlil qilindi.

NATIJALAR

Morfologik xususiyatlariga ko‘ra, har ikki tilda ham ravishlar o‘zgarimas so‘z turkumi sifatida tavsiflanadi. Ushbu belgi ularni ot, sifat va fe‘l kabi o‘zgaruvchan, ya‘ni flektiv yoki agglyutinativ shakl yasovchi vositalarga ega so‘z turkumlaridan farqlaydi. Biroq sintaktik funksiyasi nuqtai nazaridan ravishlar gapda mustaqil gap bo‘lagi, asosan hol vazifasida kela olishi bilan boshqa mustaqil so‘z turkumlari bilan umumiylik kasb etadi. O‘zbek va nemis tillariga oid grammatik manbalar qiyosiy tahlil qilinganda, ravishlarning semantik guruhlari soni hamda ularni tasniflash tamoyillarida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida ravishlar tasnifi tarixiy taraqqiyot jarayonida olimlarning nazariy yondashuvlari va grammatik mezonlariga muvofiq o‘zgarib borgan. Jumladan:

S. Fuzailov tasnifi. XX asrning 50-yillarida S. Fuzailov ravishlarni ma‘no jihatidan payt, o‘rin, holat, miqdor-daraja, maqsad, shuningdek, kuchaytiruv va inkor ravishlariga ajratgan [2, B.11].

Akademik darslik tasnifi. 1980-yilda Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar tomonidan yaratilgan akademik darslikda ravishlar miqdoriy jihatdan ixchamlashtirilib, to'rtta asosiy turga – tarz, payt, o'rin va maqsad ravishlariga ajratilgan [10, B.402-403].

Zamonaviy tilshunoslikdagi tasnif. B. Mengliyev va boshqa tadqiqotchilar qarashlarida hozirgi o'zbek tilida ravishlarning olti semantik turi qat'iy farqlanadi: holat, o'rin, payt, daraja-miqdor, maqsad va sabab ravishlari [6, B.207-208].

Nemis tili grammatik tizimida, xususan, Peter Eisenberg darsliklarida ravishlar faqat sof semantik mezonlar asosida emas, balki sintaktik-funksional xususiyatlariga ko'ra ham tasniflanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra nemis tilidagi ravishlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Lokaladverbien – o'rin ravishlari;
2. Temporaladverbien – payt ravishlari;
3. Modaladverbien – holat ravishlari;
4. Konjunkcionaladverbien – bog'lovchi-ravishlar;
5. Kommentaradverbien – izohlovchi ravishlar;
6. Pronominaladverbien – olmosh-ravishlar.

G.Helbig va J.Buscha tasnifida esa dastlab to'rtta asosiy semantik guruh farqlanadi: Lokaladverbien, Temporaladverbien, Modaladverbien va Kausaladverbien, ya'ni o'rin, payt, holat va sabab ravishlari [3, B.337-338]. Shu bilan birga, nemis tilidagi ravishlarning semantik tasnifiga muloqot jarayonidagi semantik mustaqillik darajasidan kelib chiqadigan yana bir muhim mezon qo'shiladi. Ushbu tasnif ravishlarning gapda qanday ma'no munosabatini ifodalashiga asoslanadi. Masalan, Lokaladverbien harakat yoki holatning qayerda sodir bo'lishini, Temporaladverbien uning qachon yoki qancha vaqt davomida yuz berishini, Modaladverbien harakatning qanday tarzda bajarilishini, Kausaladverbien esa harakat yoki holatning sabab, asos yoki natija bilan bog'liq jihatlarni ko'rsatadi. Biroq Helbig va Buscha tasnifining muhim jihati shundaki, unda ravishlar faqat semantik mazmuniga ko'ra emas, balki nutq jarayonidagi funksional xususiyatlariga ko'ra ham izohlanadi. Xususan, nemis tilida ayrim ravishlar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lib, ularning mazmuni kontekstdan tashqarida ham aniq anglashiladi. Bunday ravishlar harakatning payti, o'rni, holati yoki takrorlanish darajasini bevosita bildiradi. Masalan, oft “tez-tez”, immer “har doim”, bald “tez orada”, gern “bajonidil” kabi ravishlar o'z ma'nosini avvalgi matn yoki vaziyatga kuchli bog'lanmagan holda ifodalay oladi. Shu bilan birga, nemis tilida shunday ravishlar ham mavjudki, ularning ma'nosi alohida holda to'liq ochilmaydi. Bunday birliklarning mazmuni avval aytilgan fikr, matndagi oldingi gap yoki konkret nutqiy vaziyat orqali aniqlanadi. Masalan, dort “u yerda” ravishi aynan qaysi joy nazarda tutilayotganini faqat kontekst orqali bildiradi; dann “keyin/o'shanda” ravishi qaysi vaqt yoki voqeadan keyinligini matn asosida aniqlaydi; deshalb “shu sababli” ravishi esa oldingi gapda bayon qilingan sababga ishora qiladi. Demak, bunday ravishlar semantik jihatdan mustaqil emas, balki matn va vaziyat bilan bevosita bog'langan holda ishlaydi.

Mazkur yondashuv asosida Helbig va Buscha ravishlarni semantik mustaqillik darajasiga ko'ra ham farqlaydi. Bu mezon ravishning ma'nosi lisoniy kontekst yoki vaziyatli kontekstdan mustaqil holda anglashiladimi yoki, aksincha, uning ma'nosi oldingi matn, nutqiy vaziyat, ishora qilinayotgan predmet, joy, vaqt yoki sabab bilan bog'liq holda aniqlanadimi, degan masalaga tayanadi.

Natijada nemis tilidagi ravishlar ikki kichik sinfga ajratiladi: birinchisi – tor ma'nodagi ravishlar, ya'ni semantik jihatdan nisbatan mustaqil ravishlar; ikkinchisi – Pro-Adverbien, ya'ni ma'nosi kontekst yoki vaziyatga bog'liq holda shakllanadigan ravishlardir. Shunday qilib, Helbig va Buscha tasnifi nemis tilidagi ravishlarning ikki darajadagi xususiyatini ochib beradi: bir tomondan, ularning umumiy semantik guruhlari aniqlanadi; ikkinchi tomondan esa ravishlarning nutq jarayonida mustaqil yoki kontekstga bog'liq holda ma'no ifodalashi ko'rsatiladi. Bu esa nemis tilidagi ravishlar tizimini nafaqat leksik-semantik, balki funksional-kommunikativ nuqtai nazardan ham tahlil qilish imkonini beradi. Bu mezon ravish ma'nosining lisoniy yoki vaziyatli kontekstga bog'liqligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv asosida ravishlar ikki kichik sinfga ajratiladi:

1. Tor ma'nodagi ravishlar – semantik jihatdan nisbatan mustaqil bo'lgan, ma'nosi avvalgi matn yoki mavjud nutqiy vaziyatga bevosita bog'liq bo'lmagan ravishlar. Masalan: gern, bald, oft, immer, selten va boshqalar.
2. Pro-Adverbien – semantik jihatdan mustaqil bo'lmagan, ma'nosi avval aytib o'tilgan matn yoki mavjud vaziyat orqali aniqlanadigan ravishlar. Masalan: dort, dann, vorher, trotzdem, deshalb, damit va boshqalar [3, B.340-348].

Pro-ravishlar tarkibiga quyidagi birliklar kiradi:

1. Ravish vazifasidagi olmosh-ravishlar (Pronominaladverbien). Ular da, hier, wo ravishlarining predloglar bilan birikishi orqali hosil bo'ladi. Masalan: darauf, hierauf, worauf; daran, hieran, woran va boshqalar.
2. Bog'lovchi ravishlar (Konjunkionaladverbien). Masalan: deshalb, daher, trotzdem, folglich, nämlich va boshqalar.
3. So'roq ravishlar (Interrogativadverbien). Masalan: wo, wie, wann, warum, wieviel.
4. Maxsus ravishlar – olmosh-ravish, bog'lovchi ravish yoki so'roq ravish tarkibiga kirmaydigan, biroq kontekstual ko'rsatish, vaqt, o'rin yoki holat ma'nolarini ifodalovchi birliklar. Masalan: da, daher, damals, dann, derart, dort, dorthier, hier, nachher, seinerzeit va boshqalar. Umumlashtirilgan holda, nemis tilidagi ravishlar tizimini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin [11]:

Jadval 1

Nemis tilida ravishlarning ma'noviy turlari

| Lug'aviy-semantik ma'nosiga ko'ra turlar (4 ta) | Yasalishi va ishlatilish uslubiga ko'ra turlar (4 ta) |
|--|--|
| 1. Lokaladverbien (O'rin ravishlari) | 1. Kommentaradverbien (Izohlovchi ravishlar) |
| 2. Temporaladverbien (Payt ravishlari) | 2. Konjunkionaladverbien (Bog'lovchi ravishlar) |
| 3. Modaladverbien (Holat ravishlari) | 3. Interrogativadverbien (So'roq ravishlari) |
| 4. Kausaladverbien (Sabab ravishlari) | 4. Pronominaladverbien (Olmosh ravishlar) |

Qiyoslanayotgan tillardagi ravishlarning asosiy universal semantik guruhlarini mantiqiy-falsafiy jihatdan o'zaro mos keladi. Inson tafakkurida makon, zamon va harakat tarzini idrok etish umumiy kognitiv asosga ega bo'lgani sababli o'zbek va nemis tillarida ham o'rin, payt hamda holat ravishlari ravishlar tizimining markaziy qatlamini tashkil etadi.

Biroq mazkur umumiyliklar har ikki tilning grammatik qurilishi, morfologik imkoniyatlari va sintaktik tizimi ta'sirida turlicha namoyon bo'ladi. Shu bois qiyosiy tahlilda universal semantik kategoriyalar bilan bir qatorda har bir tilga xos spesifik grammatik xususiyatlarni ham alohida e'tiborga olish zarur.

O'rin ravishlari (Lokaladverbien) qiyosiy tahlili.

Nemis tilida o'rin ravishlari ancha tizimlashgan bo'lib, ular, avvalo, harakat yoki holatning makonda joylashuvi hamda yo'nalishini ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Shu jihatdan nemis tilidagi o'rin ravishlarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: Stativa, ya'ni joylashuvni bildiruvchi ravishlar (*hier, da, dort*) va Direktiva, ya'ni yo'nalishni bildiruvchi ravishlar (*her* – bu yoqqa, *hin* – u yoqqa). Bunday farqlanishda so'zlovchining makondagi pozitsiyasi, ya'ni deiktik markaz muhim ahamiyatga ega. Masalan, *her* ravishi harakatning so'zlovchi tomonga yo'nalishini bildirsa, *hin* ravishi harakatning so'zlovchidan uzoqlashuvchi yoki boshqa nuqtaga yo'nalganligini anglatadi. Demak, nemis tilida o'rin ravishlari nafaqat makon ma'nosini, balki nutq ishtirokchilarining makondagi o'zaro munosabatini ham ifodalaydi.

O'zbek tilida esa sof o'rin ravishlari miqdoran nisbatan kam uchraydi. Buning asosiy sababi turkiy tillarga xos bo'lgan rivojlangan kelishik tizimi bilan izohlanadi. O'zbek tilida o'rin-makon munosabatlari ko'pincha mustaqil ravishlar orqali emas, balki ot va olmoshlarga -ga, -da, -dan kelishik qo'shimchalarini qo'shish orqali ifodalanadi [9, B.79]. Masalan, *uyga, maktabda, shahardan* kabi shakllar o'rin yoki yo'nalish ma'nosini morfologik vositalar orqali beradi. Shu sababli nemis tilida alohida ravishlar bilan ifodalanadigan ayrim makon munosabatlari o'zbek tilida kelishik shakllari orqali yuzaga chiqadi.

T.Asadov ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi *orqavarotdan, tubanda, to'g'ridan, ro'paradan, oldindan* kabi birliklar adverbializatsiya, ya'ni boshqa so'z turkumlariga oid birliklarning ravishlashuvi natijasida shakllangan. S. Fuzailov esa *unda, bunda, bundan, shunda* kabi birliklarni ko'rsatish olmoshlarining kelishik shakllari asosida ravishga aylangan birliklar sifatida baholaydi.

Bu holat o'zbek tilida o'rin ravishlari mustaqil leksik qatlam sifatida emas, balki ko'proq morfologik va sintaktik jarayonlar natijasida shakllanishini ko'rsatadi. *Payt ravishlari (Temporaladverbien) tahlili*.

Vaqt sememasi har ikki tilda muhim leksik-semantik maydonni tashkil etadi. O'zbek tilida bu maydon faqat payt ravishlari bilan chegaralanmaydi; unga payt ma'noli otlar, olmoshlar, sifatlar hamda ayrim fe'llar ham kiradi. Vaqt sememasi tahlil qilinganda, payt otlari va payt ravishlari mustaqil hamda yetakchi mavqega ega bo'lsa, sifat, olmosh va fe'llarda vaqt tushunchasi yordamchi yoki minimal semantik komponent – sema sifatida namoyon bo'ladi [4, B.38].

O'zbek tilida payt ravishlari vaqtning boshlanishi, davomiyligi, takrorlanishi, uzluksizligi, tezkorligi yoki chegaralanganligini ifodalashiga ko'ra bir qator mikroguruhlariga ajraladi. Masalan, *avvalo, dastlab, avval* ravishlari vaqtning boshlanish nuqtasini bildiradi; *hamon, doimo, hamisha* davomiylikni ifodalaydi; *kunda, kunora, dam-badam, tez-tez* izchillik va takrorlanish ma'nosini beradi. Shuningdek, *abadulabad, umrbod* kabi birliklar uzluksizlikni, *birpasda, zumda, darrov* tezkorlikni, *onda-sonda, goh-goh, ba'zan* esa uzluksizlik yoki chegaralangan takrorlanishni bildiradi. Bu holat o'zbek tilida payt ravishlari semantik jihatdan nihoyatda nozik ichki tabaqalanishga ega ekanligini ko'rsatadi. Nemis tilida esa payt ravishlari fe'lining zamon tizimi bilan uzviy bog'liq holda qo'llanadi va ko'pincha nisbiy vaqt munosabatini ifodalaydi. Masalan, *Gestern schien die Sonne* gapida *gestern* ravishi o'tgan zamonga nisbatan vaqtni bildiradi; *Jetzt beginnt es zu regnen* gapida *jetzt* hozirgi vaqtni ifodalaydi; *Morgen werden wir die Verhandlungen fortsetzen* gapida esa *morgen* kelasi zamonga yo'naltirilgan vaqt ma'nosini beradi. Demak, nemis tilida payt ravishlarining ma'nosi ko'pincha fe'l zamoni bilan o'zaro aloqada aniqlashadi.

Bundan tashqari, nemis tilida ayrim payt ravishlari qo'llangan zamon shakliga qarab turlicha semantik mazmun kasb etadi. Masalan, *eben* ravishi hozirgi zamon bilan birikkanida "ayni shu lahzada" ma'nosini bildirishi mumkin, o'tgan zamon bilan kelganda esa "hozirgina", "boya" ma'nosini anglatadi. Xuddi shuningdek, *einst* ravishi ham kontekst va zamon shakliga qarab tarixiy o'tmish yoki kelajakdagi ehtimoliy holatga ishora qilishi mumkin. Strukturaviy-semantik jihatdan nemis tilida ham boshlanish (*anfangs, bald*), davomiylik (*immer, lange*) va takrorlanish (*häufig, manchmal*) ma'nolarini bildiruvchi ravishlar mavjud. *Holat ravishlari (Modaladverbien) va ravishda darajalanish muammosi*. O'zbek tilida holat ravishlari asosan fe'llar bilan birikib, harakatning bajarilish tarzi, usuli yoki holatini bildiruvchi adverbial sintagmalarni hosil qiladi. Masalan, *tez yurmoq, sekin gapirmoq, yashirincha kuzatmoq* kabi birikmalarda ravishlar bevosita fe'lining ma'nosini aniqlaydi. Shu bilan birga, ayrim holat ravishlari sifat yoki otlar bilan ham birika oladi: *do'stona munosabat, pinhona muhabbat* kabi birikmalar bunga misol bo'la oladi. Bu holat o'zbek tilida holat ravishlarining sintaktik imkoniyatlari nisbatan keng ekanligini ko'rsatadi.

Nemis tilida esa Modaladverbien tarkibiga "sof ravishlar" (*anders, gern*) bilan bir qatorda juda katta hajmdagi sifat-ravishlar – **Adjektivadverbien** ham kiradi. Masalan, *fleißig, gut, langsam, schnell* kabi birliklar shaklan sifat bo'lsa-da, gapda ravish vazifasida qo'llanib, harakatning bajarilish tarzini bildiradi. Bundan tashqari, nemis tilida maxsus affikslar orqali hosil qilingan modal ravishlar ham mavjud: *blindlings* – ko'r-ko'rona, *eilends* – shoshilinch, *anstandslos* – e'tirozsiz kabi birliklar shular jumlasidandir. Bu holat nemis tilida holat ravishlari tizimining morfologik jihatdan ham rivojlanganligini ko'rsatadi. Ravishlarda darajalanish masalasi esa o'zbek tilshunosligida munozarali masalalardan biri hisoblanadi. S. Fuzailov o'zbek tilida ravishlarda darajalanish xususiyati mavjud deb hisoblab, *eng, juda, g'oyat, nihoyatda* kabi birliklarni ravishlar tarkibida ko'rsatgan va ularni orttirma daraja hosil qiluvchi vositalar sifatida talqin qilgan. Biroq zamonaviy o'zbek tilshunosligida, xususan, T. Asadov yondashuvida ravishlarda darajalanish xususiyati inkor etiladi; *eng, juda, g'oyat, nihoyatda* kabi birliklar esa yuklama yoki modal ma'no ifodalovchi boshqa grammatik birliklar doirasida o'rganiladi. Shuningdek, T. Asadov *ko'p, oz, kam* so'zlarini ham ravish sifatida baholamaydi.

Professor B. Mengliyev esa ravishlarda maxsus daraja shakli mavjud emasligini ta'kidlagan holda, ayrim birliklar – xususan, *ko'p, oz, sekin* kabi so'zlarda darajalanish xususiyati kuzatilishini qayd etadi. Ushbu yondashuv muvozanatliroq ko'rinadi, chunki *ko'p, oz, kam* kabi so'zlar gapda fe'lga bog'lanib, harakatning miqdoriy belgisini ifodalaydi. Shu bois ularni ravishlar tizimidan butunlay chiqarib tashlash maqsadga muvofiq emas. Biz ham B. Mengliyev fikriga qo'shilgan holda, *ko'p, oz, kam* birliklarini ravish sifatida baholash mumkin, deb hisoblaymiz, chunki ular sintaktik jihatdan fe'lga bog'lanadi va semantik jihatdan harakat miqdorini bildiradi. Nemis tilida esa vaziyat boshqacharoq namoyon bo'ladi.

Aksariyat ravishlar sifatlar bilan shaklan mos kelgani sababli Adjektivadverbien doirasida darajalanish keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Masalan, *schnell – schneller – am schnellsten, langsam – langsamer – am langsamsten, gut – besser – am besten* kabi shakllar nemis tilida ravish vazifasida ham qo'llanadi. Demak, o'zbek tilida ravishlarda darajalanish masalasi bahsli va cheklangan hodisa sifatida qaralsa, nemis tilida bu hodisa sifat-ravishlarning umumiy grammatik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ikki til ravishlari o'rtasidagi muhim tipologik farqlardan biridir. Eng muhim tipologik tafovutlar, ayniqsa, daraja-miqdor va maqsad kategoriyalarining ifodalanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ikki kategoriya o'zbek va nemis tillaridagi ravishlar tizimining semantik tuzilishi, grammatik tasnif mezonlari hamda ifoda vositalari jihatidan sezilarli farqlanishini ko'rsatadi.

1. Daraja-miqdor kategoriyasi. O'zbek tilida daraja-miqdor ravishlari mustaqil semantik guruh sifatida ajratiladi. Bu guruh harakat, holat yoki belgining miqdoriy darajasini, kuchayishi yoki susayishini ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur ravishlar ichki semantik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi: kuchaytiruvchi va kuchsizlantiruvchi ravishlar. Kuchaytiruvchi ravishlar harakat yoki belgining yuqori darajada namoyon bo'lishini bildiradi. Masalan, *tag'in, xiyla, rosa, butkul* kabi birliklar harakatning kuchli, to'liq yoki ortiq darajada amalga oshganini ko'rsatadi. Kuchsizlantiruvchi ravishlar esa harakat yoki belgining past, chegaralangan yoki qiyinchilik bilan yuzaga chiqqanligini bildiradi. Bunga *arang, zo'rg'a, sal-pal, jinday, andak* kabi ravishlar misol bo'la oladi. Nemis tilida esa miqdor ravishlari o'zbek tilidagidek alohida mustaqil semantik guruh sifatida ajratilmaydi. Ular son jihatidan ham nisbatan cheklangan bo'lib, odatda Modaladverbien, ya'ni holat ravishlari tarkibida o'rganiladi. Bu holat nemis tilida miqdoriy ma'noning ko'pincha mustaqil ravishlar orqali emas, balki sifat-ravishlar, daraja shakllari yoki sintaktik vositalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Demak, o'zbek tilida daraja-miqdor kategoriyasi ravishlarning mustaqil leksik-semantik qatlami sifatida shakllangan bo'lsa, nemis tilida bu ma'no holat ravishlari va sifat-ravishlarning umumiy funksional doirasiga singib ketgan.

2. Maqsad kategoriyasi. O'zbek tilida maqsad ravishlari alohida semantik guruhni tashkil etadi. *Atay, atayin, ataylab, qasddan, jo'rttaga* kabi birliklar harakatning ongli, oldindan rejalashtirilgan yoki muayyan niyat asosida amalga oshirilganligini bildiradi. Bu ravishlar fe'l bilan birikib, harakatning maqsadga yo'naltirilganligini bevosita ko'rsatadi. Masalan, *ataylab aytdi, qasddan kechikdi, jo'rttaga indamadi* kabi birikmalarda harakatning tasodifiy emas, balki maqsadli ravishda bajarilgani ifodalanadi. Nemis tilida esa o'zbek tilidagidek mustaqil “maqsad ravishlari” kategoriyasi mavjud emas. Maqsad ma'nosini bildiruvchi ayrim birliklar sabab ravishlari – Kausaladverbien doirasida talqin qilinadi. O'zbek tilidagi *qasddan* yoki *ataylab* birliklariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent sifatida asosan *absichtlich* va *vorsätzlich* ravishlarini ko'rsatish mumkin. Biroq bunday birliklar son jihatidan juda cheklangan. Shuning uchun nemis tilida maqsad mazmuni ko'proq leksik ravishlar orqali emas, balki grammatik va sintaktik konstruksiyalar yordamida ifodalanadi [12].

Jumladan, nemis tilida maqsad munosabati egalar bir xil bo'lgan hollarda *um ... zu + Infinitiv* konstruksiyasi orqali beriladi: *Ich lerne Deutsch, um in Deutschland zu arbeiten* – “Men Germaniyada ishlash uchun nemis tilini o'rganaman”. Agar bosh gap va ergash gap egasi turlicha bo'lsa, maqsad ma'nosi odatda damit bog'lovchili ergash gap orqali ifodalanadi: *Ich arbeite viel, damit meine Familie gut lebt* – “Oilam yaxshi yashashi uchun ko'p ishlayman”. Bundan tashqari, nemis tilida maqsad ma'nosini ifodalashda ko'makchili birikmalar ham faol qo'llanadi: *zu + ot (zum Essen* – ovqatlanish uchun) yoki *zwecks + Genitiv (zwecks Fortbildung* – malaka oshirish maqsadida) kabi shakllar shular jumlasidandir.

Demak, o‘zbek tilida maqsad ma’nosi ravishlar orqali leksik-semantik darajada ifodalansa, nemis tilida bu ma’no asosan sintaktik va predlogli konstruksiyalar orqali kompensatsiya qilinadi. Nemis tiliga xos funksional-stilistik ravish guruhlari. Nemis tilida ravishlar tizimining yana bir muhim xususiyati shundaki, unda yasalishi, sintaktik vazifasi va nutqdagi funksional-stilistik qo‘llanishiga ko‘ra alohida ajratiladigan bir necha guruh mavjud.

Xususan, *Kommentaradverbien*, *Konjunkionaladverbien*, *Interrogativadverbien* va *Pronominaladverbien* kabi guruhlar nemis grammatikasida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida esa bunday birliklar mustaqil ravish guruhlari sifatida tizimlashtirilmaydi. Ularning semantik va funksional ekvivalentlari ko‘pincha boshqa so‘z turkumlari, modal birliklar, bog‘lovchilar yoki olmoshlar orqali ifodalanadi. *Kommentaradverbien*, ya’ni izohlovchi ravishlar, butun gap mazmuniga so‘zlovchining subyektiv bahosi, munosabati yoki emotsional pozitsiyasini bildiradi. Masalan, *glücklicherweise* – “baxtimizga”, *leider* – “afsuski” kabi birliklar gapdagi alohida bir bo‘lakni emas, balki butun predikativ mazmuni baholaydi.

O‘zbek tilshunosligida bunday birliklar ko‘pincha ravishlar tarkibida emas, balki modal so‘zlar doirasida o‘rganiladi. Chunki ular harakatning belgisi yoki holatini emas, balki so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi. *Konjunkionaladverbien*, ya’ni bog‘lovchi ravishlar, gaplar yoki matn qismlari o‘rtasidagi semantik-mantiqiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. *Trotzdem*, *deshalb*, *daher*, *folglich*, *nämlich* kabi birliklar sabab-natija, ziddlik, izohlash yoki xulosa munosabatlarini bildiradi. Ularning muhim xususiyati shundaki, ular bog‘lovchilik vazifasini bajarsada, gap tarkibida nisbatan erkin joylashishi mumkin. Masalan: *Es war noch hell, trotzdem beeilte ich mich* yoki *Es war noch hell, ich beeilte mich trotzdem*. O‘zbek tilida bunday ma’nolar odatda bog‘lovchilar, yuklamalar yoki kirish birliklari yordamida ifodalanadi. Shu sababli ular alohida “bog‘lovchi ravishlar” tizimi sifatida emas, balki bog‘lovchi vositalar doirasida talqin qilinadi.

Interrogativadverbien, ya’ni so‘roq ravishlari, nemis tilida odatda W- komponenti bilan boshlanadi: *wann*, *warum*, *wo*, *wohin*, *woher*, *wie* kabi birliklar shular jumlasidandir. Ular gapda vaqt, sabab, o‘rin, yo‘nalish yoki harakat tarziga oid batafsil ma’lumot olishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida esa bunday birliklarning muqobillari, masalan, *qachon*, *nima uchun*, *qayerda*, *qayoqqa*, *qanday* kabi shakllar, odatda so‘roq olmoshlari tizimida o‘rganiladi. Demak, nemis tilida so‘roq ma’noli birliklar ravishlar tarkibida alohida funksional guruh sifatida ajratilsa, o‘zbek tilida ular olmoshlar tizimiga yaqinlashtiriladi.

Pronominaladverbien, ya’ni olmosh-ravishlar, nemis tiliga xos bo‘lgan muhim grammatik hodisalardan biridir. Ular *da-*, *hier-* va *wo-* komponentlarining predloglar bilan birikishi orqali hosil bo‘ladi: *darüber*, *damit*, *dafür*, *hierbei*, *womit*, *worauf* kabi birliklar shular jumlasidandir. Bu birliklar asosan predmet yoki hodisalarga ishora qiladi, biroq shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Masalan: *Er war mit dem Ergebnis zufrieden* gapini *Er war damit zufrieden* shaklida almashtirish mumkin, chunki bu yerda *damit* narsa yoki holatga ishora qilmoqda. Ammo shaxsga nisbatan bunday shakl qo‘llanmaydi: *Er war mit den Sportlern zufrieden* gapida *damit* emas, balki kishilik olmoshi ishlatiladi: *Er war mit ihnen zufrieden* [5]. Bu hodisa o‘zbek tilida aynan shunday grammatik tizim sifatida mavjud emas; uning ma’nosi ko‘pincha ko‘rsatish olmoshlari, kelishik shakllari yoki kontekst orqali ifodalanadi. O‘zbek va nemis tillaridagi ravish so‘z turkumining semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi. Birinchidan, ravish so‘z turkumi har ikki til tizimida ham murakkab, ko‘p qirrali va chegaraviy xususiyatga ega leksik-grammatik kategoriya hisoblanadi. Ravishlarning boshqa so‘z turkumlari hisobidan boyib borishi, ularning konversiya, adverbializatsiya va funksional ko‘chish jarayonlari bilan bog‘liqligi ushbu turkumni nazariy tilshunoslikda hanuz muammoli guruhlardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Ayniqsa, ravishlarning sifat, olmosh, bog‘lovchi va modal birliklar bilan kesishuvchi jihatlari ularni qat’iy tasniflashni murakkablashtiradi. Ikkinchidan, lisoniy universal xususiyatlarga ko‘ra, o‘zbek va nemis tillarida ravishlarning asosiy semantik yadrosi o‘zaro mos keladi. Har ikki tilda ham makon, zamon, harakat tarzi va sabab munosabatlarini ifodalovchi ravishlar mavjud. Bu holat inson tafakkurida makon, vaqt, harakat va sababiyat kategoriyalarining universal kognitiv asosga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan **Lokaladverbien**, **Temporaladverbien**, **Modaladverbien** va **Kausaladverbien** nemis tilida qanday fundamental semantik qatlamni tashkil etsa, o‘zbek tilida ham o‘rin, payt, holat va sabab ravishlari shunday asosiy semantik vazifani bajaradi.

Uchinchidan, tillararo tizimli tafovvutlar, avvalo, ravishlarning tasnif mezonlari va son ko'rsatkichlarida ko'zga tashlanadi. O'zbek tilshunosligida ravishlarning olti asosiy semantik turi – holat, o'rin, payt, daraja-miqdor, maqsad va sabab ravishlari farqlanadi. Nemis tilida esa to'rtta asosiy semantik guruh – Lokal-, Temporal-, Modal- va Kausaladverbien bilan bir qatorda, yasalishi, sintaktik vazifasi va nutqdagi funksional qo'llanishiga ko'ra yana bir qator maxsus guruhlar – Kommentaradverbien, Konjunkionaladverbien, Interrogativadverbien va Pronominaladverbien ajratiladi.

Bu esa nemis tilida ravishlarni tasniflashda faqat semantik emas, balki sintaktik-funksional mezonlar ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. To'rtinchidan, eng muhim tipologik farqlar daraja-miqdor va maqsad kategoriyalarida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida daraja-miqdor va maqsad ravishlari alohida mustaqil semantik guruh sifatida shakllangan. Nemis tilida esa ularning aynan muqobil mustaqil semantik sinfi mavjud emas. Miqdor ma'nosi nemis tilida ko'proq holat ravishlari va sifat-ravishlar tarkibida ifodalansa, maqsad kategoriyasi asosan um ... zu, damit, zu + ot, zwecks + Genitiv kabi sintaktik va predlogli konstruksiyalar orqali beriladi. Bu holat o'zbek tilida ayrim semantik munosabatlar leksik-ravishiy vositalar orqali, nemis tilida esa grammatik-sintaktik vositalar orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Beshinchidan, o'zbek va nemis tillaridagi ravishlar tizimini qiyoslash til tipologiyasi, tarjima nazariyasi va amaliy grammatika uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki bir tildagi ravish bilan ifodalangan ma'no ikkinchi tilda har doim ham ravish orqali berilmaydi. Ayrim hollarda u kelishik shakli, predlogli birikma, ergash gap, modal so'z yoki bog'lovchi vosita orqali ifodalanadi. Bu esa tarjimada faqat leksik ekvivalentni emas, balki funksional-semantik muvofiqlikni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, o'zbek va nemis tillaridagi ravishlarning semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik tadqiq etish natijalari ikki til grammatik tizimining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur tahlil nazariy grammatika, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi hamda nemis tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitish metodikasida samarali ilmiy-metodik manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, nemis tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarida uchraydigan tipik tipologik xatolarni oldindan aniqlash, ravishlarning funksional qo'llanishini to'g'ri tushuntirish va tarjima jarayonida semantik aniqlikni ta'minlashda ushbu tadqiqot natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbek va nemis tillaridagi ravishlarning semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur so'z turkumi har ikki til tizimida ham murakkab, ko'p qatlamli va chegaraviy xususiyatga ega leksik-grammatik birliklar majmuasini tashkil etadi. Ravishlarning boshqa so'z turkumlari bilan uzviy aloqada rivojlanishi, ularning adverbializatsiya, konversiya va funksional ko'chish jarayonlari orqali boyib borishi ushbu turkumni nazariy tilshunoslikda alohida e'tibor talab qiladigan hodisa sifatida namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'zbek va nemis tillarida ravishlarning asosiy semantik yadrosi universal kognitiv kategoriyalar –makon, zamon, harakat tarzi va sabab munosabatlari bilan bog'liqdir.

Shu jihatdan o'rin, payt, holat va sabab ravishlari har ikki tilda ham mantiqiy-falsafiy asosga ega umumiy semantik guruhlar sifatida shakllangan. Biroq tillarning grammatik tuzilishi va tipologik tabiati ravishlarning ifodalanish usullarida muhim farqlarni yuzaga keltiradi. O'zbek tilida ravishlar ko'proq sof semantik mezon asosida tasniflanadi va holat, o'rin, payt, daraja-miqdor, maqsad hamda sabab kabi guruhlarga ajratiladi. Nemis tilida esa semantik mezon bilan bir qatorda sintaktik-funksional mezon ham faol qo'llanadi.

Shu sababli nemis tilida Lokaladverbien, Temporaladverbien, Modaladverbien va Kausaladverbien kabi asosiy guruhlar bilan birga Kommentaradverbien, Konjunkionaladverbien, Interrogativadverbien va Pronominaladverbien singari maxsus funksional-stilistik guruhlar ham ajratiladi. Bu holat nemis tilida ravishlar tizimining nafaqat ma'no, balki gapdagi vazifa, matn bog'lanishi va kommunikativ funksiya nuqtayi nazaridan ham tavsiflanishini ko'rsatadi. Eng muhim tipologik tafovvutlar daraja-miqdor va maqsad kategoriyalarida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida bu kategoriyalar alohida ravish guruhlari sifatida mavjud bo'lsa, nemis tilida ular mustaqil semantik sinf sifatida ajratilmaydi. Miqdor ma'nosi nemis tilida asosan holat ravishlari yoki sifat-ravishlar tarkibida ifodalanadi, maqsad mazmuni esa ko'proq *um ... zu, damit, zu + ot* va *zwecks + Genitiv* kabi sintaktik hamda predlogli konstruksiyalar orqali beriladi.

Demak, bir tildagi ravishiy ma'no ikkinchi tilda har doim ham ravish orqali emas, balki boshqa grammatik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'zbek va nemis tillaridagi ravishlarni qiyosiy o'rganishda faqat leksik ekvivalentlarga tayanish yetarli emas, balki ularning funksional-semantik mosligini ham hisobga olish zarur. Tarjima jarayonida o'zbek tilidagi maqsad, daraja-miqdor yoki o'rin ravishlari nemis tilida qaysi sintaktik model, predlogli birikma yoki funksional birlik orqali berilishini aniqlash muhimdir. Shuningdek, nemis tilini o'zbek auditoriyasiga o'qitishda Lokaladverbien, Pronominaladverbien va Konjunkionaladverbien kabi o'zbek tilida alohida tizim sifatida mavjud bo'lmagan guruhlarni maxsus tushuntirish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv talabalarda ravishlarning shakliy emas, balki mazmuniy va kommunikativ vazifasini anglash ko'nikmasini shakllantiradi hamda tipologik xatolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadov T.H. *So‘z turkumlari tizimida ravish*. Monografiya. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2010.
2. Fuzailov S. *O‘zbek tilida ravishlar*. – Toshkent: Fan, 1953.
3. Helbig G., Buscha J. *Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht*. – München, 1996.
4. Hakimov M. O‘zbek tilida leksematik vaqt tizimi // *Til va adabiyot ta’limi*. – Toshkent, 2002. – № 3. – B. 38.
5. Balcik I., Röhe K., Wröbe V. *PONS. Die große Grammatik Deutsch*. – Stuttgart: PONS GmbH, 2009.
6. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. *O‘zbek tilidan universal qo‘llanma*. 2-nashr. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.
7. Eisenberg P., Gelhaus H. *Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache*. – Zürich, 1995.
8. Vinogradov V.V. *Russkiy yazik. Grammaticheskoe ucheniye o slove*. – Moskva–Leningrad: Uchpedgiz, 1947. – S. 338–397.
9. Xudoyberganova Z. O‘zbek va turk tillarida o‘rin holi // *Til va adabiyot ta’limi*. – Toshkent, 2002. – № 5. – B. 79.
10. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Darslik. 1-qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
11. Gymglish. German grammar materials. – www.gymglish.com.
12. ResearchGate. Scientific publications and research materials. – www.researchgate.net.

ILMIY TAQRIZ

Xusainova Xolisxon tomonidan tayyorlangan “O‘zbek va nemis tillaridagi ravishlarning semantik kategoriyalarini qiyosiy-tipologik tadqiqi” nomli maqola o‘zbek va nemis tillarida ravish so‘z turkumining semantik guruhlanishi, funksional xususiyatlari hamda tipologik tafovvutlarini yoritishga bag‘ishlangan dolzarb ilmiy tadqiqotdir. Maqolada ravishlarning o‘rin, payt, holat, sabab, daraja-miqdor va maqsad kabi semantik kategoriyalari qiyosiy tahlil qilinib, ikki til tizimida ushbu birliklarning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda o‘zbek va nemis tillaridagi ravishlar faqat umumiy grammatik tasnif doirasida emas, balki qiyosiy-tipologik, leksik-semantik va funksional yondashuv asosida tahlil qilingan. Ayniqsa, o‘zbek tilida daraja-miqdor va maqsad ravishlarining mustaqil semantik guruh sifatida mavjudligi, nemis tilida esa bunday kategoriyalarning alohida ravish guruhi sifatida ajratilmasligi asosli ravishda ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, nemis tiliga xos Kommentaradverbien, Konjunkionaladverbien, Interrogativadverbien va Pronominaladverbien kabi funksional-stilistik guruhlarning o‘zbek tilidagi muqobillari boshqa so‘z turkumlari yoki sintaktik vositalar orqali ifodalanishi maqolaning muhim ilmiy xulosalaridan biridir.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va chet tilini o‘qitish metodikasi ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek va nemis tillari turli tipologik tizimlarga mansub bo‘lgani sababli ravishlarning semantik va grammatik ifodalanishidagi tafovvutlarni aniqlash nazariy hamda amaliy jihatdan muhimdir. Maqola natijalari nemis tilini o‘zbek auditoriyasiga o‘qitishda, tarjimada funksional-semantik muvofiqlikni ta’minlashda hamda tipologik xatolarning oldini olishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqolada qo‘llangan metodologiya umumiy ilmiy talablar darajasida asoslangan. Muallif qiyosiy-tipologik, leksik-semantik, grammatik va funksional tahlil usullaridan foydalangan. O‘zbek tilshunosligida S. Fuzailov, T. Asadov, B. Mengliyev kabi olimlarning qarashlari, nemis grammatikasida esa G. Helbig, J. Buscha, P. Eisenberg va boshqa tadqiqotchilar tasniflari asosida ilmiy solishtirish olib borilgan. Bu esa maqoladagi xulosalarning ishonchligini ta’minlaydi. Maqolaning kuchli jihati – unda faktik materiallarning tizimli berilishi, ikki til grammatik tizimining semantik va funksional jihatdan izchil qiyoslanishi hamda xulosalarning amaliy yo‘nalishga ega ekanligidir. Shu bilan birga, ayrim o‘rinlarda misollar sonini ko‘paytirish, nemis va o‘zbek tilidagi parallel gaplarni yanada kengroq tahlil qilish maqolaning daliliy bazasini kuchaytirgan bo‘lardi. Shuningdek, ba’zi nazariy fikrlarni jadval yoki sxema ko‘rinishida umumlashtirish maqola mazmunini yanada aniqroq idrok etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maqola ilmiy jihatdan asoslangan, mavzusi dolzarb, natijalari esa nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bildirilgan ayrim takomillashtirish tavsiyalari maqolaning umumiy ilmiy qiymatini pasaytirmaydi. Ushbu maqolani IMFAKTOR ilmiy jurnalida nashr etishga tavsiya etish mumkin.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Research & Innovations* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal’s publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.